

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.02.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**ULUG‘BEKOVA GULRUXAN JURAYEVNA**

**SARATON KASALLIKLARIGA QARSHI TA’SIR KO’RSATUVCHI  
XALQ TABOBATI VOSITALARINING MAKROFAGLAR  
MORFOLOGIYASIGA TA’SIRI**

**14.00.41 – Xalq tabobati**

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2026**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)**

|  |    |
|--|----|
| <b>Ulug‘bekova Gulruxan Jo‘rayevna</b><br>Saraton kasalliklariga qarshi ta’sir ko‘rsatuvchi xalq tabobati vositalarining<br>makrofaglar morfologiyasiga ta’siri..... | 3  |
| <b>Улугбекова Гулрухан Жураевна</b><br>Влияние народных средств обладающих противораковым действием на<br>морфологию макрофагов.....                                 | 29 |
| <b>Ulugbekova Gulrukhan Juraevna</b><br>The Effect of Traditional Remedies with Anticancer Activity on the<br>Morphology of Macrophages.....                         | 55 |
| <b>E’lon qilingan ishlar ro‘uxati</b><br>Список опубликованных работ<br>List of published works.....   | 59 |

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.02.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**ULUG‘BEKOVA GULRUXAN JURAYEVNA**

**SARATON KASALLIKLARIGA QARSHI TA’SIR KO’RSATUVCHI  
XALQ TABOBATI VOSITALARINING MAKROFAGLAR  
MORFOLOGIYASIGA TA’SIRI**

**14.00.41 - Xalq tabobati**

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2026**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.DSc/Tib4817 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.adti.uz](http://www.adti.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** Mamatova Irodaxon Yusupovna  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Fattaxov Nusratillo Xamidullayevich  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Mirsaydullayev Mirmaxmud Mirxamidovich  
tibbiyot fanlari doktori, professor

Ismoilov Mo'minjon Yusupovich  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakehi tashkilot:** Buxoro davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc.06/2025.27.12.Tib.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "19 fevral" soat 12<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Yu.Atabekov ko'ch. 1. Tel.: (+998 74) 223 94 50; e-mail: info@adti.uz)

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Yu.Atabekov ko'ch. 1. Tel.: (+998 74) 223 94 50)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "07 fevral" kuni tarqatildi.  
(2026 yil 07.02 da № 2 raqamli reestr bayonnomasi).



M.M.Mo'minjonov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi o'rinbosari, k.f.d., dotsent

J.A. Botirov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent

N.S.Xakimov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., dotsent

**KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi) Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda saraton kasalligi eng dolzarb sogʻliq muammolaridan biri boʻlib, har yili 20 millionga yaqin yangi holatlar qayd etiladi<sup>1</sup>. Zamonaviy kimyoterapevtik davo usullarining toksikligi, rezistentlik holatlari va immun tizimning buzilishi global miqyosda xavfsiz, tabiiy manbali preparatlarga qiziqishni oshirmoqda. Ayniqsa, immunoterapiya yoʻnalishi da makrofaglar kabi asosiy immun hujayralarni nishonga olgan tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo olimlari xalq tabobati vositalaridan olingan bioaktiv komponentlar flavonoidlar, terpenoidlar, alkaloidlar kabi moddalarning immunomodulyator xususiyatlarini chuqur oʻrganmoqda. Biroq, ularning makrofaglar morfologiyasi va funksiyalariga bevosita taʼsiri, shuningdek apoptoz jarayonlarini qanday boshqarishi toʻliq aniqlanmaganligi sababli, ushbu yoʻnalish fundamental va amaliy jihatdan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Jahonda saraton immunoterapiyasi yoʻnalishida olib borilayotgan tadqiqotlar orasida makrofaglarning polarizatsiyasi (M1 va M2 turlari)ni modulyatsiya qilish orqali oʻsma rivojlanishini nazorat qilish gʻoyasi keng rivojlanmoqda. AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi yetakchi ilmiy markazlarda oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, xalq tabobati preparatlaridan olingan tabiiy birikmalar (masalan, quercetin, apigenin, glabridin) yalligʻlanish mediatorlari IL-6, TNF- $\alpha$ , NF- $\kappa$ B signal yoʻllarini bostiradi, apoptoz mexanizmlarini faollashtiradi va makrofaglarning sitotoksik faolligini oshiradi. Shu bilan birga, xalq tabobati vositalari toksikologik jihatdan xavfsiz boʻlib, ularning klinik tadqiqotlarga joriy etilishi hozirgi kunda xalqaro miqyosda ustuvor yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda soʻnggi yillarda xalq tabobati vositalarini ilmiy asoslash va ularni onkologik amaliyotga joriy etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda, chunki mahalliy oʻsimliklar asosida yaratilgan bioaktiv preparatlar makrofaglarning morfologik va funksional holatini yaxshilash, yalligʻlanishni kamaytirish hamda apoptozni faollashtirish orqali antitumor immun javobni kuchaytirish borasida muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>2</sup> «...aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot xodimlari potensialini oshirish va sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirishning 2022-2026 yillarga moʻljallangan dasturini amalga oshirishga yoʻnaltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish...»<sup>3</sup> boʻyicha amalga oshirilishi muhim boʻlgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, xalq tabobatiga mansub oʻsimlik ekstraktlari makrofaglarning proliferatsiyasi va fagotsitar faolligini oshirish, saraton patogenezida immun tizimning buzilgan mexanizmlarini tiklash xususiyatini aniqlash, shu bilan birga, xalq tabobati

<sup>1</sup> <https://gco.iarc.who.int/today/en/fact-sheets-populations#global>

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январьдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

vositalarining immun tizimiga, xususan, makrofaglar morfologiyasi va funksiyasiga ta'sirini ilmiy asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni<sup>4</sup>, 2017-yil 12-iyundagi PQ-3052-son "Sog'liqni saqlash organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, hamda 2020-yil 10-apreldagi PQ-4668-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalarga to'liq mos keladi.

Mazkur dissertatsiya ishlanmasi ushbu davlat dasturlarida belgilangan ilmiy-innovatsion yo'nalishlarga muvofiq amalga oshirilib, xalq tabobati vositalarining saratonga qarshi immunomodulyator va apoptoz-induktor xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali O'zbekiston onkologik amaliyotida tabiiy, toksik bo'lmagan prepratlar joriy etish uchun ilmiy asos yaratadi. Tadqiqot natijalari milliy sog'liqni saqlash tizimining farmakologik bazasini boyitish, makrofaglar faoliyatini tiklash orqali immunoterapiyaning samaradorligini oshirish va xalq tabobatini zamonaviy biotibbiy yondashuvlar bilan integratsiya qilishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VI ustuvor yo'nalishi "Tibbiyot va farmakologiya" sohasi bo'yicha tasdiqlangan ilmiy dasturlar doirasida amalga oshirilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>5</sup>.** Dunyoda saraton kasalliklarining immunopatogenezi asoslash, shuningdek tabiiy kelib chiqishli biofaol moddalarning immun tizim elementlariga, xususan makrofaqlarning morfologiyasi va funksional faolligiga ta'sirini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning etakchi markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida, jumladan Canada Research Chair in Aboriginal Forestry, Université du Québec (Kanada), Faculty of medicine, Laval university (Kanada) Department of Chemistry, Tulane University (AQSH), University of Munich, Faculty of Natural Sciences, Institute of Chemistry (Germaniya), Departamento de Tecnología de los Alimentos, Universitat Politècnica de València (Ispaniya), School of Chemical Sciences National Institute of Science Education and Research (Hindiston), School of life science Southwest university (Xitoy), Department of Chemistry, Faculty of Science, Taif University (Saudiya Arabistoni), Department

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

<sup>5</sup>Singaravelan N, Tollefsbol TO. Polyphenol-Based Prevention and Treatment of Cancer Through Epigenetic and Combinatorial Mechanisms. *Nutrients*. 2025 Feb 8;17(4):616. doi: 10.3390/nu17040616. PMID: 40004944; PMCID: PMC11858336.; Yin Z, Song R, Yu T, Fu Y, Ding Y, Nie H. Natural Compounds Regulate Macrophage Polarization and Alleviate Inflammation Against ALI/ARDS. *Biomolecules*. 2025 Jan 29;15(2):192. doi: 10.3390/biom15020192. PMID: 40001495; PMCID: PMC11853067.; Rahmani AH, Alsahli MA, Almatroudi A, Almogbel MA, Khan AA, Anwar S, Almatroodi SA. The Potential Role of Apigenin in Cancer Prevention and Treatment. *Molecules*. 2022 Sep 16;27(18):6051. doi: 10.3390/molecules27186051. PMID: 36144783; PMCID: PMC9505045.; Kubatka, P., Mazurakova, A., Samec, M. *et al.* Flavonoids against non-physiologic inflammation attributed to cancer initiation, development, and progression—3PM pathways. *EPMA Journal* 12, 559–587 (2021). <https://doi.org/10.1007/s13167-021-00257-y>

of Pharmacy, Istanbul University (Turkiya), Shahrekord University of Medical Sciences, Shahrekord (Eron)da olib borilmoqda.

Dunyoda o'simlik kelib chiqishli bioaktiv moddalarning immun tizimi va saraton hujayralariga ta'sirini aniqlash va kasalliklarda foydalanish tadqiqotlari natijasida bir qator natijalar olingan: jumladan, ayrim dorivor o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari aniqlangan (Canada Research Chair in Aboriginal Forestry, Université du Québec, Kanada); o'simlik tarkibidagi makro- va mikroelementlarning miqdorini o'rganish usullari ishlab chiqilgan (Dipartimento di Chimica Industriale "Toso Montanari", Università di Bologna, Italiya); o'simliklar asosida saratonni oldini oluvchi dori vositalari ishlab chiqilgan (Department of Pharmacy, Istanbul University, Turkiya), flavonoidlar va polifenol birikmalarning immunomodulyator hamda antioksidant xususiyatlari aniqlangan (University of Alabama at Birmingham, USA), Tabiiy birikmalar NF- $\kappa$ B, JAK/STAT va MAPK signal yo'llarini modulyatsiya qilishi orqali IL-1 $\beta$ , TNF- $\alpha$  va IL-6 kabi yallig'lanish sitokinlarini kamaytirib, IL-10 va TGF- $\beta$  darajasini oshirishi aniqlagan (Qassim University, Saudi Arabia; Seoul National University, South Korea; Comenius University in Bratislava, Slovakia), o'simlik preparatlarining farmakologik xususiyatlari aniqlangan (Shahrekord University of Medical Sciences, Shahrekord, Eron) mikroelementlarga boy o'simliklar asosida tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari olingan (Bialystok University of Technology, Faculty of Civil Engineering and Environmental Sciences, Department of Chemistry, Polsha); dorivor o'simlik tarkibidagi biologik faol moddalarning tarkibi va tuzilishi aniqlangan (O'simlik moddalar kimyosi instituti, O'zbekiston).

Dunyoda dorivor o'simliklar asosida inson organizmidagi turli saraton kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega tabiiy, bezarar dori vositalari ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha qator ustivor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, dorivor o'simliklar va boshqa tabiiy manbalardan biofaol moddalarni ajratib olish; ularning tarkibi va tuzilishini fizik-ximiyoviy usullar orqali aniqlash; immunomodulyator, antiinflamator va antioksidant faolligini baholash; makrofaglar morfologiyasi va funksiyasiga, shuningdek NF- $\kappa$ B, JAK/STAT va MAPK signal yo'llariga ta'sirini o'rganish; saraton hujayralarida apoptoz mexanizmlarini (Bax/Bcl-2 nisbati, kaspazalar faolligi, DNK fragmentatsiyasi) aniqlash; shuningdek, tabiiy biofaol moddalar asosida yuqori terapevtik samarali yangi vositalar yaratish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xori jiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, saraton immunoterapiyasida makrofaglarning roli so'nggi yillarda faol o'rganilmoqda. Mantovani A. (2021) va Biswas S.K. (2022) kabi olimlarning tadqiqotlarida makrofaglarning M1/M2 polarizatsiyasi o'sma rivojlanishining muhim patogenetik omili sifatida ko'rsatilib, M1-tipdagi makrofaglar antitumor faollikka, M2-tipdagi makrofaglar esa immunosuppressiv xususi yatlarga ega ekani isbotlangan. Bu ishlar makrofaglarning saraton mikro-muhitida immun javobni shakllantirishdagi o'rni nazariy jihatdan asoslab berdi.

Wang Y. (2022, Xitoy) va Gupta R. (2023, Hindiston) tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa xalq tabobatida ishlatiladigan o'simlik ekstraktlarining

immun hujayralar faoliyatiga ta'siri o'rganilgan. Ularning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, ayrim bioaktiv moddalar makrofaglarning fagotsitoz faolligini oshiradi, sitokinlar- IL-6, TNF- $\alpha$ , IL-10 sekretsiyasini modulyatsiya qiladi hamda immun tizimning hujayraviy javobini faollashtiradi. Biroq, mavjud ishlarning aksariyati morfologik va ultra struktur o'zgarishlarni yetarli darajada tahlil etmagan bo'lib, makrofaglarning morfologik transformatsiyasi va faol holatlari o'rtasidagi bog'liqlik to'liq ochilmagan.

O'zbekiston olimlari orasida bu yo'nalishda Askarov I.R. va Mamatova I.Y. rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda o'simlik ekstraktlarining makrofaglar morfologiyasi va proliferatsiyasiga ta'siri yuzasidan dastlabki ilmiy natijalar olingan. Ularning ishlari xalq tabobati vositalarining immunoregulyator potensialini tasdiqlagan bo'lsa-da, apoptoz, yallig'lanish va morfologik o'zgarishlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hali to'liq aniqlanmagan. Shu sababli, mazkur dissertatsiya xalq tabobati vositalarining makrofaglar morfologiyasi, immun faolligi va apoptoz jarayonlariga kompleks ta'sirini tizimli tarzda o'rganish, ularning toksikologik va terapevtik asoslarini ilmiy jihatdan isbotlash hamda xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o'rtasidagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Andijon davlat tibbiyot institutida professor Mamatova I.Y. rahbarligida amalga oshirilayotgan "Makrofag proliferatsiyasini boshqarish orqali kasalliklarni immunoterapevtik davolash usullarini ishlab chiqish" nomli ilmiy loyiha (Shartnoma № AL-7823051378) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** saraton kasalligiga qarshi xalq tabobati vositalarining makrofaglar morfologiyasi va funksional holatiga ta'sirini aniqlash orqali samarali va xavfsiz fitoterapevtik vositalar ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy asoslarni yaratishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Xalq tabobatiga mansub "Majmuiy Raxmoniy" va "Askaltsiy" tabiiy komplekslarining makrofaglar immunofenotipiga ta'sirini o'rganish hamda CD80, CD86, CD163 va CD206 markerlari ekspressiyasi asosida M1/M2 polarizatsiyasidagi o'zgarishlarni aniqlash.

In vivo sharoitda glioblastoma hujayralari bilan kokultura modeli va glioblastoma modeli hayvonlarda ushbu preparatlarning angiogenez, immun hujayralar infiltratsiyasi, o'sma massasi va metastazlar soniga ta'sirini baholash hamda makrofaglar orqali vositachilik qiluvchi apoptoz-immunoregulyator mexanizmlarni aniqlash.

Tabiiy komplekslarning toksikologik xavfsizligini (LD<sub>50</sub>, ALT, AST, kreatinin, bilirubin) baholash asosida ularning klinik qo'llanish uchun xavfsiz dozalari, antioksidant va immunomodulyator ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash.

"Majmuiy Raxmoniy" va "Askaltsiy" preparatlarining yallig'lanish mediatorlari (IL-6, TNF- $\alpha$ , IL-10) sekretsiyasiga ta'sirini aniqlash hamda IL-10/TNF- $\alpha$  nisbati orqali immun gomeostazni baholashning diagnostik ahamiyatini aniqlash.

Tabiiy komplekslarning doksorubitsin bilan kombinatsiyada qo‘llangandagi sinergik ta‘sirini o‘rganish hamda olingan eksperimental va klinik ma‘lumotlar asosida xalq tabobati vositalariga asoslangan, toksik bo‘lmagan, mahalliy immunomodulyator fitoterapevtik va kombinatsion davolash modelini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob‘yekti.** Tadqiqotning ob‘yekti sifatida saraton hujayra liniyalari, tajriba hayvonlari (kalamush va sichqonlar) hamda xalq tabobatida qo‘llaniladigan tabiiy kompleks (Majmuiy Raxmoniy va Askaltsiy) olingan. Ushbu ob‘yektlar orqali tabiiy kompleksning makrofaglar morfologiyasi, proliferatsiyasi va immun faolligiga ta‘siri o‘rganildi.

**Tadqiqotning predmeti.** Xalq tabobatiga mansub tabiiy kompleksning makrofaglardagi morfologik o‘zgarishlar, M2 → M1 polarizatsiya jarayoni, apoptoz mexanizmlari va saraton hujayralari bilan o‘zaro ta‘siri orqali yuzaga keluvchi immunoregulyator va saratonga qarshi mexanizmlarini o‘rganishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada laboratoriya, morfologik va instrumental usullar qo‘llanilib, MRT, oqim sitometriyasi, ELISA va MTT testlari yordamida tabiiy komplekslarning apoptoz, proliferatsiya hamda makrofaglar funksional holatiga ta‘siri o‘rganildi. Tadqiqotda xalq tabobati vositalarining zamonaviy tibbiyot bilan integratsiyalashgan fitoterapevtik yondashuvlari qo‘llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Ilk bor xalq tabobatida qo‘llaniladigan “Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” tabiiy komplekslarining CD80, CD86, CD163 va CD206 markerlari ekspressiyasiga ta‘siri aniqlanib, ularning proinflamator (M1) fenotipni faollashtiruvchi va immuno supressiv (M2) fenotipni kamaytiruvchi xususiyatlari aniqlangan.

*In vivo* sharoitda “Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” oziq-ovqat qo‘shilmalarining glioblastoma hujayralari bilan kokultura modeli hamda glioblastoma modeli hayvonlarda angiogenezni susaytirishi, immun hujayralar infiltratsiyasini oshirishi va o‘sma massasi hamda metastazlar sonini kamaytirishi orqali aniq antitumor va immunoregulyator faollikka ega ekanligi isbotlanib, makrofaglar orqali vositachilik qiluvchi apoptoz-immunoregulyator integratsion modeli ishlab chiqilgan.

Xalq tabobatida qo‘llaniladigan tabiiy komplekslarning toksikologik xavfsizlik darajasi ( $LD_{50}$ , ALT, AST, kreatinin, bilirubin) aniqlanib, ularning toksik bo‘lmagan, klinik qo‘llanish uchun xavfsiz dozalari belgilanib, antioksidant faollikni oshirishi, yallig‘lanish mediatorlari (IL-6, TNF- $\alpha$ , IL-10) balansini tiklashi va IL-10/TNF- $\alpha$  nisbati orqali immun gomeostazni me‘yorlashtirishi ilmiy asoslangan.

Majmuiy Rahmoniy va Askaltsiy oziq ovqat qo‘shilmalarini doksorubitsin bilan sinergik ta‘siri aniqlash natijasida ularning sitotoksik samaradorligini oshiruvchi va toksik ta‘sirini kamaytiruvchi, saraton hujayralarini nishonli apoptosga yo‘naltirish evaziga immun tizim faoliyatini kuchaytirish xususiyati isbotlangan;

O‘zbekiston sharoitidagi mahalliy tabiiy preparatlarga asoslangan, toksik bo‘lmagan immunomodulyator vositalar (Majmuiy Rahmoniy va Askaltsiy) asosida saraton immunoterapiyasida qo‘llash uchun ilmiy asoslangan fitoterapevtik model ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Xalq tabobatiga mansub “Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” tabiiy komplekslarining makrofaglar immunofenotipiga ta’siri amaliy jihatdan isbotlanib, ularning CD80 va CD86 ekspressiyasini oshirish, CD163 va CD206 markerlarini kamaytirish orqali M2 → M1 polarizatsiyasini faollashtiruvchi immunomodulyator xususiyatlari aniqlandi;

Glioblastoma hujayralari bilan kokultura modeli va glioblastoma modeli hayvonlarda “Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” komplekslarining angiogenezni susaytirishi, immun hujayralar infiltratsiyasini oshirishi hamda o’sma massasi va metastazlar rivojini cheklashi asosida makrofaglar orqali vositachilik qiluvchi apoptoz–immunoregulyator integratsiya asoslab berildi;

Makrofaglarning morfologik baholash usul (Giemsa va H&E bo‘yoqlari, ImageJ morfometriya) takomillashtirildi;

Tabiiy komplekslarning toksikologik xavfsizlik ko‘rsatkichlari (LD<sub>50</sub>, ALT, AST, kreatinin, bilirubin) asosida ularning klinik qo‘llanish uchun xavfsiz dozalari belgilanib, antioksidant faollikni oshirishi, yallig‘lanish mediatorlari muvozanatini tiklashi hamda IL-10/TNF- $\alpha$  indeksi orqali immun gomeostazni baholashga yo‘naltirilgan amaliy diagnostik yondashuv takomillashtirildi;

“Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” komplekslarining doksorubitsin bilan sinergik qo‘llanilishiga asoslangan yangi kombinatsion terapevtik yondashuv shakllantirilib, mazkur kombinatsiyaning saraton hujayralarida sitotoksik samaradorlikni oshirishi hamda sog‘lom to‘qimalarga nisbatan toksik ta’sirni kamaytirish imkoniyati isbotlandi;

“Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” preparatlarining in vitro, in vivo va klinik bosqichlarda o‘tkazilgan sinov natijalari asosida ularni saraton terapiyasida yordamchi (adjuvant) fitoterapevtik vosita sifatida qo‘llash imkoniyati isbotlandi;

Tabiiy komplekslar ta’sirida sitokin profili (IL-6, TNF- $\alpha$ , IL-10, TGF- $\beta$ ) ning muvozanatlanishi hamda IL-10/TNF- $\alpha$  indeksi yordamida immun holatni baholashning soddalashtirilgan mezonlari takomillashtirildi.

**Tadqiqot natijalarini ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi standartlashtirilgan laboratoriya, biokimyoviy, gistologik va immunologik usullar, shuningdek Annexin V-FITC/PI, ELISA, MTT testlari va SPSS (ANOVA) statistik tahlili bilan ta’minlandi; klinik bosqichda MRT ma’lumotlarining takrorlanuvchanligi va eksperimental-klinik muvofiqlik natijalarni tasdiqladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqot saraton immunoterapiyasi sohasida makrofaglar orqali vositachilik qiluvchi tabiiy immunoregulyatsiya va apoptoz integratsiyasiga asoslangan yangi ilmiy yondashuvni shakllantirdi. “Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” komplekslarining makrofaglar M2 → M1 polarizatsiyasiga, sitokin profili va apoptoz mexanizmlariga ta’siri ilk bor ilmiy asoslandi, bu esa o’sma mikro-muhitini immunologik qayta dasturlash imkoniyatlarini ko‘rsatdi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tabiiy komplekslarning toksik boʻlmagan va klinik jihatdan xavfsiz dozalari aniqlanib, ularni saraton terapiyasida adjuvant fitoterapevtik vosita sifatida qoʻllash imkoniyati isbotlandi. Shuningdek, makrofaglar holatini baholash va immun javobni monitoring qilishga qaratilgan metodik yondashuvlar tibbiy-amaliyot va oʻquv jarayonlariga tatbiq etish uchun tavsiya etildi.

### **Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.**

*Birinchi ilmiy yangilik:* ilk bor xalq tabobatida qoʻllaniladigan “Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” tabiiy komplekslarining CD80, CD86, CD163 va CD206 markerlari ekspressiyasiga taʼsiri aniqlanib, ularning proinflamator (M1) fenotipni faollashtiruvchi va immuno supressiv (M2) fenotipni kamaytiruvchi xususiyatlarini aniqlash asosida ishlab chiqilgan model uchun Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazi tomonidan foydali model patenti olingan (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazining 2025 yil 13 yanvardagi #FAP2762-son foydali model patenti. *Ijtimoiy samaradorligi:* Saraton kasalligida immun javobni faollashtirib, davolash samaradorligi va bemorlar hayot sifatini oshiradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* Mahalliy, patentlangan preparatlar import dori vositalari va davolash harajatlarini kamaytirgan. “Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” tabiiy komplekslarini kimyoterapiya bilan birga qoʻllash bemor boshiga I kurs xarajatini 25–35 % ga kamaytirib, oʻrtacha 600–660 ming soʻm tejamkorlikni taʼminladi. Bu kombinatsiya tibbiy samaradorlik va iqtisodiy tejamkorlikni optimal muvozanatda birlashtiradi.

*Ikkinchi ilmiy yangilik:* In vivo sharoitda “Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” preparatlari glioblastoma hujayralari bilan kokultura modeli hamda glioblastoma modeli hayvonlarda angiogenezni susaytirishi, immun hujayralar infiltratsiyasini oshirishi va oʻsma massasi hamda metastazlar sonini kamaytirishi orqali aniq antitumor va immunoregulyator faollikka ega ekanligi isbotlanib, makrofaglar orqali vositachilik qiluvchi apoptoz-immunoregulyator integratsiya modeli ishlab chiqishga oid takliflardan AL-7823051378 loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi 2024 yil 31 maydagi 7823051378- son shartnoma asosida bajarilgan). *Ijtimoiy samaradorligi:* Immun infiltratsiyaning oshishi va angiogenezning susayishi natijasida oʻsma massasi 30–45 % ga, metastazlar soni 40 % gacha kamayib, bemorlarning yashash prognozi sezilarli yaxshilanadi. *Iqtisodiy samaradorligi:* Adjuvant qoʻllash hisobiga kimyoterapiya dozasi 20–30 % ga qisqarib, davolash bilan bogʻliq umumiy xarajatlar oʻrtacha 25–35 % ga kamaygan.

*Uchinchi ilmiy yangilik:* Xalq tabobatida qoʻllaniladigan tabiiy komplekslarning toksikologik xavfsizlik darajasi ( $LD_{50}$ , ALT, AST, kreatinin, bilirubin) aniqlanib, ularning toksik boʻlmagan, klinik qoʻllanish uchun xavfsiz dozalari belgilanib, antioksidant faollikni oshirishi, yalligʻlanish mediatorlari (IL-6, TNF- $\alpha$ , IL-10) balansini tiklashi va IL-10/TNF- $\alpha$  nisbati orqali immun gomeostazni meʼyorlashtirishi ilmiy asoslanganligi boʻyicha takliflar Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali ekspert kengashi tomonidan 2025 yil 28

avgustdagi 109<sup>a</sup>-25-son bilan tasdiqlangan “Sitokin profilini aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiya” nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilib, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg‘ona viloyati filiali, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon viloyati filiali davlat muassasasi amaliyotiga joriy qilingan (Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg‘ona viloyati filiali davlat muassasasi 2025 yil 3 sentyabrdagi A-125-son, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon viloyati filiali davlat muassasasi 2025 yil 7 oktyabrdagi 144-son buyrug‘i, Sog‘likni saqlash vazirligi xuzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2025 yil 12 dekabrda 31/m-06 son xulosasi). *Ijtimoiy samaradorligi:* be‘morlarda immun holatni erta va aniq baholash imkonini berib, davolash samaradorligini oshiradi hamda ularlarning hayot sifatini yaxshilaydi. *Iqtisodiy samaradorligi:* laborator tahlil va davolash xarajatlari 25–30 % gacha kamayib, reagent sarfi qisqaradi va har bir bemor uchun o‘rtacha 700–900 ming so‘m mablag‘ tejalgan.

*To‘rtinchi ilmiy yangilik:* Majmuiy Rahmoniy va Askaltsiy oziq ovqat qo‘shimchalarini doksorubitsin bilan sinergik ta‘sirini aniqlash natijasida ularning sitotoksik samaradorligini oshiruvchi va toksik ta‘sirini kamaytiruvchi, saraton hujayralarini nishonli apoptosga yo‘naltirish evaziga immun tizim faoliyatini kuchaytirish xususiyatini aniqlashga oid ilmiy natijalar Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali ekspert kengashi tomonidan 2025 yil 28 avgustdagi 109-25-son bilan tasdiqlangan “tabiiy komplekslarning doksorubitsin bilan sinergik apoptoz ta‘sirini baholash kombinatsion model)” nomli uslubiy tavsiyanoma xamda 2025 yil 28 avgustdagi 110-25-son bilan tasdiqlangan “Glioblastoma terapiyasida xalq tabobati vositalarining klinik qollanilishi va immunoregulyator samarasi” nomli uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan holda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg‘ona viloyati filiali davlat muassasasi va Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon viloyati filiali davlat muassasasi amaliyotiga joriy etilgan (Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg‘ona viloyati filiali davlat muassasasi 2025 yil 3 sentyabrdagi A-125-son xamda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon viloyati filiali davlat muassasasi 2025 yil 7 oktyabrdagi 144-son buyruqlari, Sog‘likni saqlash vazirligi xuzuridagi Ilmiy texnik kengashning 2025 yil 12 dekabrda 31/m-06 son xulosasi). *Ijtimoiy samaradorligi:* Tabiiy komplekslar va doksorubitsin kombinatsiyasi glioblastoma bemorlarida davolash samaradorligini oshirib, toksik asoratlarni kamaytirish orqali hayot sifatini yaxshilaydi hamda xalq tabobati vositalarini klinik amaliyotga integratsiyalash imkonini beradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* Kombinatsion yondashuv kimyoterapiya dozalarini kamaytirishga, davolash xarajatlarini optimallashtirishga va mahalliy, arzon tabiiy preparatlar hisobiga import dori vositalariga bo‘lgan iqtisodiy qaramlikni qisqartirishga xizmat qilgan.

*Beshinchi ilmiy yangilik:* O‘zbekiston sharoitidagi mahalliy tabiiy preparatlarga asoslangan, toksik bo‘lmagan immunomodulyator vositalar (Majmuy Rahmoniy va Askaltsiy) asosida saraton immunoterapiyasida qo‘llash uchun ilmiy asoslangan fitoterapevtik model ishlab chiqilib O‘zbekiston Respublikasi Xalq tabobati markazi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xalq tabobati markazining 2025 yil 12 dekabrda 2/12-IL-son buyrug‘i). *Ijtimoiy samaradorligi:* saraton mikro-muhitida immun gomeostazni tiklashga xizmat qilib, toksik bo‘lmagan mahalliy immunomodulyator vositalar orqali bemorlarning uzoq muddatli klinik natijalari va hayot sifatini yaxshilaydi. *Iqtisodiy samaradorligi:* Mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqilgan fitoterapevtik va kombinatsion yondashuv import qilinadigan yuqori narxli immunoterapevtik preparatlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirib, davolash jarayonining umumiy xarajatlarini optimallashtirish va sog‘liqni saqlash tizimi resurslaridan samarali foydalanish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muxokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 30 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta maqola, jumladan Respublika miqyosidagi 13 va 6 ta ilmiy maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xotima, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning xajmi 140 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiya kirish qismida** saraton kasalliklarining yuqori o‘lim darajasi, immunopatogenetik murakkabligi va dori rezistentligi bilan global sog‘liqni saqlashning dolzarb muammolaridan biri ekani asoslab berilgan. Kimyoterapiya va nurlantirish usullarining toksikligi fonida xavfsiz va ko‘p yo‘nalishli tabiiy terapevtik vositalarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgani ko‘rsatib o‘tilgan. O‘sha mikro-muhitida makrofaglarining M1/M2 polarizatsiyasi o‘sha rivojlanishini belgilovchi muhim omil ekani, M2-dominant holat angiogenez va metastazni kuchaytirishi hamda shu bois  $M2 \rightarrow M1$  repolarizatsiya zamonaviy immunoterapiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekani yoritilgan. Tabiiy flavonoid va polifenollarning immunomodulyator xususiyatlari ma‘lum bo‘lsa-da, ularning makrofag fenotipi va apoptoz mexanizmlariga, ayniqsa glioblastoma sharoitida, ta‘siri yetarli darajada o‘rganilmagani ta‘kidlangan. O‘zbekiston sharoitida ekologik yuklama va surunkali yallig‘lanish fonida mahalliy xomashyoga asoslangan xavfsiz immunomodulyator vositalarni ishlab chiqish dolzarbligini asoslanib, “Majmu‘i Raxmoniy” va “Askaltsiy” komplekslarini tadqiq etishning ilmiy va amaliy ahamiyati belgilangan. Mazkur tadqiqot saraton patogenezida makrofaglar rolini yoritish, tabiiy vositalarning immunomodulyator

va apoptotik mexanizmlarini ilmiy asoslash hamda ularni onkoterapiyaga integratsiya qilish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

**Dissertatsiyaning birinchi bobi “Saraton immunobiologiyasi va xalq tabobati vositalarining ilmiy asoslari”** Ushbu bobda saraton patogenezida yallig‘lanish ning roli, NF- $\kappa$ B, JAK/STAT, MAPK kabi signal yo‘llarining faollashuvi va ular ning o‘sma rivojlanishidagi o‘rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Saraton rivojlanish bosqichlari keng yoritilgan. Immun tizimning saratonga qarshi tabiiy himoya mexanizmlari, “immuno editing” modeli (elimination–equilibrium-escape), T-limfotsitlar, NK-hujayralar va makrofaglarning o‘zaro ta’siri ilmiy asoslangan. M1 va M2 tipdagi makrofaglarning funksional farqlari, o‘sma bilan bog‘liq makrofaglarning (TAM) immunosupressiv va proangiogen roli bayon qilingan. Xalq tabobatida qo‘llaniladigan o‘simliklardan olingan flavonoidlar, terpenoidlar va polifenollarning immunoregulyator, antioksi dant va apoptotik xususiyatlariga oid xalqaro tadqiqotlar tahlil qilingan

**Tadqiqotimizning ikkinchi “Tadqiqot ob’yekti, materiallari va metodlari”** Ushbu bobda in vitro (glioblastoma hujayralari, makrofaglar) va in vivo (sichqon, kalamush) tajriba modellaridan foydalanilgani ko‘rsatilgan. Klinik bosqichda onko logik bemorlar kuzatuvga olingan. Tadqiqotda qo‘llangan tabiiy komplekslar- “Maj muiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” preparatlarining tarkibiy xususiyatlari keltirilgan. Metodlar qatoriga makrofaglar morfologiyasi (Giemsa, HE), M1/M2 markerlari (CD80/CD86/CD163/CD206), oqim sitometriyasi, Annexin V/PI apoptoz testi, MTT proliferatsiya testi, ELISA orqali sitokin tahlili, DPPH antioksidant testi, OECD standartlari bo‘yicha toksikologik baholash, gistologik tahlil, biokimyoviy markerlar (ALT, AST, LDH, bilirubin) va klinik kuzatuv metodlari kiradi. Statistik tahlil ANOVA mezonlariga asoslangan.

**Tadqiqotimizning uchinchi bobida “Xalq tabobati vositalarining toksikologik xavfsizligi va yallig‘lanishga ta’siri”** Bu bobda preparatlarning antiradikallik va antioksidant faolligi DPPH testi orqali tasdiqlangani, o‘tkir va surunkali toksiklik bo‘yicha yuqori xavfsizlik darajasi aniqlangani bayon etilgan. Paw-edema modeli asosida ularning yallig‘lanishga qarshi samaradorligi isbotlanib, jigar, buyrak, taloq va o‘sma to‘qimalarining gistologik tahlilida toksik ta’sir aniqlanmagan, aksincha distrofik va yallig‘lanish jarayonlarining kamayishi qayd etilgan.

1-jadval

DPPH radikal testi natijalari.

| <b>Ekstrakt</b>    | <b><math>\Delta D</math></b> | <b>ARF (%)</b> | <b>Reaksiya xususiyati</b>                   |
|--------------------|------------------------------|----------------|--|
| “Majmu‘i Raxmoniy” | 0,084                        | 7,71 %         | Barqaror antioksidant tizim                  |
| “Askaltsiy”        | 0,067                        | 6,15 %         | Ikki bosqichli (prooksidant → antioksi dant) |

DPPH testi “Majmuy Raxmoniy” ekstraktining antiradikal faolligini (7,71 %) aniqlab, uning vodorod-donorlikka asoslangan kuchli antioksidant potensialini tasdiqladi (jadval-1). Tajriba guruhlaridagi hayvonlar nazorat bilan solishtirilganda, qo‘llangan dozalar sichqonlarning tana massasiga ta’sir ko‘rsatmagan bo‘lib, tajriba davomida (7 va 24-kunlarda) sezilarli o‘zgarish kuzatilmadi ( $p > 0,05$ ). “Askaltsiy” va “MajmuMajmuy Raxmoniy” (kapsula)

ekstraktlari 6000 mg/kg dozada og‘iz orqali bir martalik qo‘llanganda o‘lim holatlari qayd etilmadi; shuning uchun ularning o‘rtacha o‘lim doza ko‘rsatkichi  $LD_{50} > 6000$  mg/kg deb baholandi (1-rasm). Olingan toksikologik natijalar 2-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. Toksikologik test jarayoni.

Tadqiqot natijalari Askaltsiy va Majmuiy Raxmoniy moddalarining sichqonlar ga oshqozon orqali yuborilganda  $LD_{50} > 6000$  mg/kg ekanini ko‘rsatdi. OECD tasni figa ko‘ra, bu ko‘rsatkich ularni VI sinfga- nisbatan zararsiz kimyoviy birikmalar gu ruhiga mansub ekanini bildirib, keyingi biologik va farmakologik tadqiqotlar uchun optimal qo‘llash usuli sifatida aynan peroral (oshqozon orqali) kiritishni tanlash imkonini berdi.

2-jadval


Askaltsiy va Majmuiy Raxmoniy moddalarning erkak sichqonlarda o‘tkir zaharlash xususiyatlarini baholash ko‘rsatkichlari ( $M \pm m, n=5$ ).

| Guruhlar            | Doza<br>mg/kg, ml | Hayvonlarning<br>umumiy soni /<br>o‘lgan hayvon soni | Hayvonlarning o‘rtacha tana<br>vazni(g) |       |        | LD <sub>50</sub> ,<br>mg/kg |
|---------------------|-------------------|--|---|-------|--------|-----------------------------|
|                     |                   |  | 1 kun                                   | 7 kun | 24 kun |                             |
| Nazorat             | 0,4 ml            | 5/0  | 22,4                                    | 23,2  | 24,1   | -                           |
| Askaltsiy           | 6000 mg/kg        | 5/0  | 22,2                                    | 22,9  | 23,8   | LD <sub>50</sub> >6000      |
| Majmuiy<br>Raxmoniy | 6000 mg/kg        | 5/0  | 22,3                                    | 23,0  | 23,9   | LD <sub>50</sub> >6000      |

Izoh: \*p<0,05 - nazoratga nisbatan


“Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” komplekslari bilan o‘tkazilgan mahalliy tirnash, teri orqali so‘rilish va ko‘z shilliq qavati sinovlarida kalamush va sichqonlarda tirnash, zaharlanish yoki o‘lim holatlari aniqlanmadi (2-rasm).

Yallig‘lanishga qarshi samaradorlikni baholashda karaginin, serotonin, gistamin va formalin kabi mediatorlarga asoslangan eksperimental modellar qo‘llaniladi.




2-rasm. Yalliglanish testi jarayoni.

Karaginin (kasal davolanmagan) gruppasida maksimal shish 3 soatda kuzatilib, boshlang‘ichga nisbatan  $83,6 \pm 8,2\%$  ga yetgan va hatto 4 soatdan keyin ham  $47,9 \pm 4,6\%$  yuqori bo‘lib qolgan. Tadqiqot guruhida ham maksimal shish karaginin kiritilganidan keyin 3 soatda kuzatilgan, lekin preparatlarning ta‘siri 4 soatdan keyin deyarli normaga yaqinlashgan va xar soatda foizlarda 1 soat va 2, 3 va 4 soatlardagi natijalar keltirilgan (3-rasm).



3-rasm. Ajratib olingan Askaltsiy va Majmuy Raxmoniy moddalarining xar xil dozalaridagi karaginin bilan keltirilgan oyoq shishiga ta'siri boshlang'ichga nisbatan % da, ( $M \pm m$ ;  $n=5$ ), ( $M \pm m$ ;  $n=5$ ).

“Askaltsiy” va “Majmuy Raxmoniy” moddalari 50 va 100 mg/kg dozada sinovdan o'tkazilganda, eng yuqori yallig'lanishga qarshi faollik 50 mg/kg dozada kuzatildi. Karragenai modeli natijalari Majmuy Raxmoniyning doza-bog'liq kuchli anti-ekssudativ ta'sirga ega ekanini, 100 mg/kg dozada maksimal ingibitsiya ( $42,2 \pm 4,1$  %) qayd etilishini ko'rsatdi (4-rasm).



4-rasm. Ajratib olingan Askaltsiy va Majmuy Raxmoniy moddalarining xar xil dozalardagi anti-ekssudativ faolli nazoratga nisbatan o'rganildi.

Tajriba hayvonlarida Majmuy Raxmoniy preparati va Askaltsiyning kombinatsiyasi antioksidant, gistoprotektiv va immunomodulyator xususiyatlarni kuchaytirishi maqsadida baholandi. Hayvonlar 21 kun davomida preparatlarni peroral ravishda qabul qilganidan so'ng, jigar, buyrak, taloq va o'sma to'qimalari morfologik jihatdan o'rganildi.

*Jigar to'qimasi.* Yallig'lanish modeli guruhida gepatotsitlarda vakuolyar degeneratsiya, sinusoidlarning torayishi va mononuklear infiltratlar kuzatildi. Komplekslar berilgan hayvonlarda esa gepatotsitlar arxitekturasi saqlangan, sitoplazma toza eozinofil, yadro shakli tiklangan va markaziy venalar ochiq bo'ldi.




5-rasm. Jigar to'qimasi. A –nazorat; B-yallig'lanish; C-Majmuy Raxmoniy va Askaltsiy ichilgandan so'ng.

Bundan tashqari, mitotik faol hujayralar soni ortib, regeneratsion jarayonlar faollashgani kuzatildi. Bu kombinatsiyaning antioksidant himoya tizimini kuchaytiruvchi va detoksikatsion mexanizmlarni tiklovchi xususiyatini ko'rsatadi (5-rasm).


*Buyrak to'qimasi.* Nazorat guruhida buyrakning tuzilishi normal edi. Yallig'lanish modeli guruhida kanalchalar epiteliylarining shishishi, bazal membrananing notekisligi va ayrim joylarda glomerulalarning qisqarishi kuzatildi.

Tabiiy komponentlar va askaltsiy berilgan hayvonlarda glomerulyar struktura tiklangan, tubulalar epiteliyasi yaxlit, yadro shakli aniq va joylashuvi me'yorda bo'lib, degenerativ o'zgarishlar kamaygan. Bu natija kombinatsiyaning buyrakni oksidlovchi stressdan himoya qiluvchi sinergik ta'sirini isbotlaydi (6-rasm).




6-rasm. Buyrak to'qimasi. A- nazorat; B - Majmuiy Raxmoniy va Askaltsiy berilgan hayvonlar.

Taloqda nazorat guruhida oq-qizil pulpa chegarasi aniq va follikulalar saqlangan edi. Yallig'lanish modelida limfoid parchalanuv, gemorragik o'choqlar kuzatildi. Majmuiy Raxmoniy va Askaltsiy berilgan hayvonlarda esa oq pulpa tiklanishi, follikula proliferatsiyasi va makrofaglar sonining oshishi qayd etilib, kombinatsiyaning immunoregulyator ta'siri tasdiqlandi (7-rasm).




7-rasm. Taloq to'qimasi.

Glioblastoma modeli sifatida kalamushlarga o'sma hujayralari inokulyatsiya qilinib, o'sma 21 kun davomida kuzatildi. Nazoratga nisbatan glioblastoma guruhida yadro pleomorfizmi, ko'p yadroli hujayralar, angiogenez o'choqlari va nekroz zonalari bilan kechuvchi tipik malign morfologiya kuzatildi (8-rasm).




8-rasm. Glioblastoma modeli to'qimasi, nazorat (H-E bo'yoq,  $\times 400$ ).

Majmuiy Raxmoniy va Askaltsiy birgalikda berilgan kalamushlarda glioblastoma o'smasining morfologiyasi aks etgan. O'sma to'qimasida hujayra zich ligi kamaygan, piknotik va fragmentatsiyalangan apoptotik hujayralar ko'paygan, stromada fibroblastlar proliferatsiyasi va kollagen tolalari shakllangan. Nekroz o'choqlari kichrayib, mikrosirkulyatsiya yaxshilangan. Bu o'zgarishlar preparatlar kombinatsiyasining antitumor va gistoprotektiv ta'sirini morfologik jihatdan tasdiqlaydi (9-rasm).



9-rasm. Glioblastoma modeli Majmuiy Raxmoniy va Askaltsiy davosidan keyingi to'qima (H-E bo'yoq,  $\times 400$ ).

Rasmda tajriba kalamushlarida 21 kun davomida doksorubitsin bilan davolan gan glioblastoma o'smasining gistologik ko'rinishi aks etgan. O'sma parenximasida hujayra zichligi kamaygan, yadrolar piknotik va fragmentatsiyalangan, apoptotik va nekrotik o'choqlar ko'paygan. Mitotik faollik pasaygan, stromada fibroblastlar proliferatsiyasi va kollagen tolalarining hosil bo'lishi kuzatilgan (10-rasm).




10-rasm. Glioblastoma modeli: doxorubitsin ta'siridan keyingi to'qima (H-E bo'yoq, ×400).

Doksorubitsin o'sma to'qimasida mikrosirkulyatsiya buzilishi, keng nekroz va kuchli hujayra destruksiyasini chaqirdi. Majmuiy Raxmoniy + Askaltsiy kombi natsiyasi esa nazoratli apoptozni kuchaytirib, stromal regeneratsiyani faollashtirdi va to'qimalarni gistoprotektiv tarzda himoya qildi. Natijalar ushbu kombinatsiya ning past toksik, antioksidant va sinergik antitumor ta'sirga ega ekanini ko'rsatadi.

**Tadqiqotimizning “Makrofaglar morfologiyasi va apoptoz jarayonlariga ta'siri” IV-bobida** tabiiy komplekslarning makrofaglarda M2 → M1 yo'nalishida repolarizatsiya jarayonini induksiya qilgani morfologik va immunofenotipik mezonlar asosida ilmiy isbotlangan. M1 markerlari (CD80/CD86) oshgani, M2 markerlari (CD163/CD206) kamaygani ko'rsatilgan. Apoptoz ko'rsatkichlari (Annexin V/PI, Bax/Bcl-2, Caspase-3/9) yuqori darajada faollashgani aniqlangan.

Glioblastoma hujayralari bilan kokultura modelida “Majmuiy Raxmoniy” va “Askaltsiy” apoptozni kuchaytirib, doksorubitsin bilan sinergik ta'sir namoyon qildi. Makrofaglarda sitoplazmatik vakuolalar ko'payishi, yadro morfologiyasi va mitoxondriyalar zichligining oshishi M1 faollashuvining yangi morfologik belgisi sifatida tavsiya etildi. Glioblastoma mikro-muhitida M2-dominant immunosuppressiv holat ustun bo'lsa-da, tabiiy komplekslar makrofaglarni




11-rasm. Makrofaglarning poyarizatsiyasi markerlari ekspressiyasi.

M2→M1 yo'nalishga o'tkazib, CD80/CD86 ni oshirdi, CD163/CD206, IL-10 va VEGF ni kamaytirdi hamda TNF-α ni ko'paytirdi. Kombinatsiya eng kuchli immun faollashuvni (M1/M2 = 3.5) ko'rsatib, kam toksik va barqaror immunomodulyator potensial bilan ajralib turdi; doksorubitsin esa M1 ni oshirsa-da, yuqori sitotoksiklik bilan cheklangan bo'ldi (11-rasm).


Majmuiy Raxmoniy + Askaltsiy kombinatsiyasi makrofaglarni M1 fenotipiga repolarizatsiya qilib, TNF-α va CD80/CD86 ni oshirdi, VEGF va IL-10 ni kamaytirdi hamda angiogenezni susaytirdi. Ushbu ta'sir CD39/CD73/A<sub>2</sub> A adenzin

signalizatsiyasining bloklanishi bilan bog‘liq bo‘lib, kombinatsiyaning glioblastomada immun javobni kuchaytiruvchi samaradorligini tasdiqlaydi (12-rasm).




12-rasm. Makrofaqlarning morfologik o‘zgarishlari.

Glioblastoma mikro-muhitida makrofaqlar asosan M2-immunosupressiv holatda bo‘lib, o‘sma o‘sishi va angiogenezni kuchaytiradi. Majmuyiy Raxmoniy + Askaltsiy bu muvozanatni M1 yo‘nalishga qayta dasturlab ( $TNF-\alpha\uparrow$ ,  $IL-10/VEGF\downarrow$ ), kuchli anti-angiogen va immuno-faollashtiruvchi ta’sir ko‘rsatdi. Komplekslar glioblastoma immunoterapiyasi uchun kam toksik, istiqbolli immunomodulyator sifatida asoslandi (13-rasm). Apoptoz tahlilida Majmuyiy Raxmoniy va Askaltsiy kompleksi Annexin V–FITC/PI oqim sitometriyasi orqali baholandi. Nazoratda hujayralarning 98.52 % tirik bo‘lgan bo‘lsa, doksorubitsin ta’sirida tirik hujayralar 71.69 % gacha kamaydi, umumiy apoptoz esa 28.26 % ni tashkil etdi. Nekroz minimal bo‘lib, jarayonning nazoratli apoptotik yo‘l bilan kechganini ko‘rsatdi.




13-rasm. Glioblastoma hujayralarida Majmuyiy Raxmoniy (0.01 %) ta’sirida kuzatilgan morfologik o‘zgarishlar.

Majmuyiy Raxmoniyning 0.01 % konsentratsiyasi glioblastoma hujayralarining  $54.91 \pm 0.99$  % tirikligini saqlab, erta apoptoz  $25.87 \pm 0.46$  %, kech apoptoz  $18.93 \pm 0.47$  %, umumiy apoptoz  $44.80 \pm 0.64$  % ni tashkil etdi ( $p < 0.001$ ). Bu natijalar Doksorubitsin bilan taqqoslaganda 1.6 baravar yuqori apoptotik faollikni ko‘rsatdi. 0.005 % konsentratsiyada esa umumiy apoptoz  $14.53 \pm 0.18$  % bo‘lib, doza pasayishi bilan apoptoz kamaygani aniqlandi bu doza-ta’sir korrelyatsiyasini isbotlaydi (14-rasm).



14-rasm. Apoptoz ko‘rsatkichlari.

Majmuiy Raxmoniy ta'sirida hujayralarda xromatin kondensatsiyasi, yadro segmentatsiyasi va blebbing kuzatilib, intrinsik apoptotik yo'l faollashgani aniqlandi. Askaltsiy esa yuqori apoptotik faollik ko'rsatdi: 0.01% konsentratsiyada umumiy apoptoz 56.77%, 0.005 % da 47.01% ni tashkil etib, dozaga nisbatan barqaror apoptotik ta'sir namoyon etdi. Nekrozning juda past darajada (0.17–0.55%) qayd etilgani Askaltsiyning selektiv apoptotik xususiyatini tasdiqladi (15-rasm).



15-rasm. Annexin V–FITC/PI oqim sitometriya natijalari (glioblastoma hujayralari, n = 3).


Kombinatsion qo'llashda hujayra hayotiyiligi  $\approx 32\%$  gacha kamayib, kuchli sinergik apoptotik va antiproliferativ ta'sir qayd etildi (3-jadval). MTT testi asosida olingan natijalar tabiiy komplekslar doksorubitsinning oksidlovchi stress orqali apoptoz mexanizmini kuchaytirishi, nekroz jarayonlarini kamaytirishi, hujayra o'limining fiziologik yo'lini ustunlashtirishini va bu yondashuv saraton terapiyasida kimyoterapiya + fitoterapiya kombinatsiyasining asosiy afzalligini tashkil etishini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Kombinatsion davolashda hujayra hayotiyiligi (MTT testi natijalari, 48 soat).

| Guruhlar | Davolash varianti                  | Hujayra hayotiyiligi, % (M ± SD) | p < 0.05 (nazoratga nisbatan) |
|----------|------------------------------------|----------------------------------|-------------------------------|
| 1        | Nazorat                            | 100 ± 0                          | —                             |
| 2        | Doksorubitsin 10 µg/mL             | 49,8 ± 4,7                       | ✓                             |
| 3        | “Majmuiy Raxmoniy” 25 µg/mL        | 78,4 ± 3,6                       | ✓                             |
| 4        | “Askaltsiy” 25 µg/mL               | 82,1 ± 3,9                       | ✓                             |
| 5        | Doksorubitsin + “Majmuiy Raxmoniy” | 32,5 ± 3,9                       | ✓✓                            |
| 6        | Doksorubitsin + “Askaltsiy”        | 36,4 ± 4,1                       | ✓✓                            |

Tabiiy komplekslar va doksorubitsinning hujayra o'limiga ta'siri oqim sitometriyasi yordamida tahlil qilindi. Annexin V/PI testi yordamida hujayralarning hayotiy ( $Ann^- /PI^-$ ), erta apoptotik ( $Ann^+ /PI^-$ ), kech apoptotik ( $Ann^+ /PI^+$ ) va nekrotik ( $Ann^- /PI^+$ ) holatlari aniqlanib, kombinatsion davolash natijasida apoptozning kuchayish darajasi baholandi (16-rasm).



16-rasm. Annexin V/PI oqim sitometriyasi natijalari (% M ± SD) (MR- Majmuyi Raxmoniy, A- Askaltsiy).

